

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI  
“RADIOPREPARAT” DAVLAT KORXONASI**

**AXMEDOV JAMOL AZIMOVICH**

**LYUTETSIY-177 RADIONUKLIDINI NURLATILGAN ITTERBIY-176  
NISHONIDAN AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH  
VA UNI ISHLAB CHIQRISHGA JORIY QILISH**

**01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari**

**Dissertatsiya himoyasiz ixtiro patentlari asosida  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berish bo'yicha  
TAQDIMNOMA**

**Toshkent – 2024**

**Dissertatsiya himoyasisiz ixtiro patentlari asosida texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berish bo‘yicha taqdimnoma Mundarijasi**

**Оглавление**

**представления по присуждению ученой степени доктора философии по техническим наукам (PhD) на основе патентов на изобретения без защиты диссертации**

**Content of the representation on awarding the scientific degree of Doctor of Philosophy on technical sciences (PhD) based on the patent of the invention without dissertation defense**

**Axmedov Jamol Azimovich**

Lytetsiy-177 radionuklidini nurlatilgan itterbiy-176 nishonidan ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga joriy qilish..... 3

**Ахмедов Жамол Азимович**

Разработка технологии разделения радионуклида Лютеций-177 из облученной мишени иттербия-176 и внедрение его в производство..... 21

**Axmedov Jamol Azimovich**

Development of technology for separating of Lutetium-177 radionuclide from irradiated ytterbium-176 target and its introduction into production..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ ..... 45

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI  
“RADIOPREPARAT” DAVLAT KORXONASI**

**AXMEDOV JAMOL AZIMOVICH**

**LYUTETSIY-177 RADIONUKLIDINI NURLATILGAN ITTERBIY-176  
NISHONIDAN AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH  
VA UNI ISHLAB CHIQRISHGA JORIY QILISH**

**01.04.01 – Eksperimental fizikaning asboblari va usullari**

**Dissertatsiya himoyasiz ixtiro patentlari asosida  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berish bo'yicha  
TAQDIMNOMA**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3554 raqami bilan ro'yhatga olingan.**

Ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti qoshidagi "Radiopreparat" davlat korxonasiida bajarilgan.

Ilmiy-tadqiqot taqdimnomasi uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.inp.uz](http://www.inp.uz)) va "Ziyonet" ta'lim axborot tarmog'ida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sadikov Ilxam Ismailovich**

texnika fanlari doktori, professor, akademik

Ilmiy-tadqiqot taqdimnomasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-41; e-mail: [info@inp.uz](mailto:info@inp.uz)).

Ilmiy-tadqiqot taqdimnomasi bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yhatga olingan. (Manzil: 100214, Toshkent sh., Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-19).

Ilmiy-tadqiqot taqdimnomasi 2024-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**M.Yu.Tashmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**O.R.Tojiboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD, kata ilmiy xodim

## KIRISH (taqdimnoma annotatsiyasi)

**Ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda inson hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan sohalarda, xususan, tibbiyotning mutlaqo yangi yo'nalishlarining rivojlanishiga yadro fizikasi usullari va boshqa ilmiy hajmdor texnologiyalar jadal tadbiq etilmoqda. Buning natijasida tibbiyotda zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan yangi soha – yadroviy tibbiyot sohasi paydo bo'ldi. Yadroviy tibbiyot fanning eng istiqbolli sohaslaridan biri hisoblanadi. Yadroviy tibbiyot usullarining o'ziga xosligi shundaki, ular inson a'zolarining hayotiy faoliyatidagi funksional o'zgarishlarni kasallikning dastlabki bosqichlarida, inson kasallik belgilarini hali sezmaganda holatida tashxislash imkonini beradi. Yadroviy tibbiyot texnologiyalari, shu jumladan, kasalliklarni tashxislash va davolash, asosan, radioaktiv nuklidlarning turli xil nurlanishidan foydalanishiga asoslangan. Yadro fizikasining eksperimental usullari hamda biokimyoviy bilimlarning uyg'unligi zamonaviy tibbiyotda kasalliklarni tashxislash va davolash usullarini ishlab chiqish uchun ajoyib istiqbollarni yaratmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda saraton kasalliklarini davolash usullaridan biri – bu radionuklid terapiyasi hisoblanadi. U o'sma kasalliklarini kompleks va kombinatsiyalangan davolashning tarkibiy qismi sifatida, shuningdek, saraton kasalliklarining 60 foizida mustaqil ravishda qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda radioaktiv izotoplardan foydalangan holda diagnostika va muolajalar soni yiliga 10 foizdan ortib borishi bilan bir necha o'n millionni tashkil etadi. Shuning uchun tibbiy radioizotoplar ishlab chiqarish yadro sanoatining muhim, o'sib borayotgan tarmog'iga aylandi. Lyutetsiy-177 radionuklidi eng istiqbolli va so'ngi yillarda radioizotop substansiyalar shaklida juda keng qo'llaniladigan radionuklidlar sirasiga kiradi. Ushbu radioaktiv substansiyalar asosida  $^{177}\text{Lu-PSMA-11}$ ,  $^{177}\text{Lu-PSMA-617}$ , (prostata saratonini tashxisi va davolashda),  $^{177}\text{Lu-DOTA-TATE}$ ,  $^{177}\text{Lu-DOTA-NOC}$  (metastatik neyroendokrin o'smalarni davolashda) va boshqa bir qancha radiofarmatsevtik dori vositalari ishlab chiqariladi. Radiofarmatsevtik preparatlarni tayyorlash uchun substansiya ko'rinishidagi radionuklidlarga maxsus talablar qo'yiladi, chunki zarur radiokimyoviy, radionuklid tozaligidan tashqari, olingan mahsulotlarning yuqori solishtirma radioaktivligi va sterilligi talab qilinadi. Lyutetsiy-177 radionuklidi asosida ushbu substansiyalarni olishning yangi usullarini ishlab chiqish va tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega, chunki dunyoda ushbu radionuklidga yil sayin talab ortib bormoqda.

Respublikamizda radionuklidlar va ular asosida radiofarmatsevtik vositalarini ishlab chiqarish, ularni onkologik klinikalarida, tashxis va davolashda qo'llash kabi eksperimental tadqiqotlarga katta ahamiyat qaratilmoqda. So'nggi 10 yil ichida Lu-177 radionuklidini elektrokimyoviy va xromotografik usullar yordamida ajratib olish hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti qoshidagi "Radiopreparat" davlat korxonasida amalga oshirilmoqda. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida lyutetsiy-177 radioaktiv izotopi elektrokimyoviy va xromotografik usullarda ajratib olish hamda tozalash texnologiyalari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-noyabrdagi PF-5229-sonli "Farmatsevtika tarmog'ini

boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli “Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VII “Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Yadro tibbiyoti uchun radionuklidlar asosida lyutetsiy-177 radionuklidi asosida substansiyalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish dunyoning ko‘plab olimlari tomonidan amalga oshirilgan va amalga oshirilmogda, masalan, amerikalik (P.V.Joshi, K.C.Jagadeesan, R.B.Manolkar, A.R.Mathakar), braziliyalik (Carlos A.Zeituni, Maria Elisa C.M.Rostelato), rossiyalik (V.A.Tarasov, E.G.Romanov, R.A.Kuznetsov), polshalik (T.Bednarczuk, M.Bolanowski, A.Zemczak, A.Baldys-Waligórska), germaniyalik (Christoph B.), o‘zbekistonlik (S.Xujayev, A.M.Abduqayumov va b.) va boshqa mutaxassislar.

Ular  $^{176}\text{Lu}$  izotopining tabiiy yoki boyitilgan namunasini neytron oqimi bilan nurlantirish orqali  $^{177}\text{Lu}$  radionuklid olish texnologiyasini ishlab chiqdilar va ishlab chiqarishga kiritdilar; yuqori darajadagi toza tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidini ishlab chiqarish usuli; boyitilgan iterbiy-176 (99,9 %) izotopi bilan  $^{176}\text{Yb}(\text{NO}_3)_3$  ko‘rinishidagi iterbiy birikmasini nurlantirish yo‘li bilan tashuvchisiz xlorid shaklida lutetiy-177 radionuklidini olish usuli.

Biro, yuqoridagi usullar bilan olingan lyutetsiy-177 radionuklidining asosiy kamchiliklaridan uning radiokimyoviy unumi 90 dan oshmasligi hamda maqsadli radionuklidining solishtirma radioaktivligi 15-20 Kyuri/mgdan oshmasligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, ma‘lum usullar bilan lyutetsiy-177 radionuklidini olishda, 0,5 grammdan ko‘p bo‘lmagan iterbiy-176 bilan boyitilgan boshlang‘ich materialdan cheklangan miqdorda foydalanish tufayli olingan lyutetsiy-177 radionuklidining miqdori juda past bo‘ladi. Yuqorida tavsiflangan usullardan foydalangan holda lyutetsiy-177 radionuklidini ko‘p miqdorda olish uchun xromatografik tozalash usulining ko‘p takrorlanishi tufayli ko‘p vaqt talab etiladi, bu maqsadli radionuklidning texnologik mahsuldorligining pasayishiga va iterbiy-176 bilan boyitilgan qimmatbaho xom ashyoning yo‘qolishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, barcha ana shu kamchiliklarni hisobga olgan holda, yuqori solishtirma radioaktivlikga, radiokimyoviy, kimyoviy tozalikga va yuqori texnologik unumdorlikga ega bo‘lgan, radionuklidni ko‘p miqdorda olish imkonini beruvchi tashuvchisiz lutetiy-177 radionuklidini olish usulini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi.

**Tadqiqotning ilmiy-tadqiqot ishi bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Ilmiy-tadqiqot ishlari O‘zbekiston fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti qoshidagi “Radiopreparat” Davlat korxonasiining “2010-2020-yillar davomida yangi texnologiyalar yaratish va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot dasturi asosidagi 2013-yil 27-dekabrdagi № 027/13-sonli “Katta miqdorli iterbiy namunasidan yuqori radiokimyoviy unum va yuqori radiokimyoviy tozalik bilan lyutetsiy-177

radioizotopi asosidagi “Tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  bilan nishonlangan lyutetsiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )” substansiyasini olishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish” texnik topshiriqlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yuqori radiokimyoviy, kimyoviy tozalik va yuqori faollikdagi radioaktiv substansiya olish uchun 10 gram hamda undan ortiq makromiqdordagi boyitilgan  $^{176}\text{Yb}$  izotopidan yuqori unum bilan mikro miqdordagi tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  radioizotopini ajratishning ekspres usulini yaratishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

barqaror  $^{176}\text{Yb}$  izotopi bilan boyitilib nurlatilgan itterbiy namunasini Hg katodiga  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$  dan  $^{175,176}\text{Yb}^0$  gacha elektrokimyoviy qaytarish uchun namunaning optimal kimyoviy shaklini aniqlash;

makromiqdorli itterbiy namunasini tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklididan elektrokimyoviy usulda ajratishda ishqorlar ta'sirini o'rganish;

Hg katodida  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$  ni  $^{175,176}\text{Yb}^0$  gacha elektrokimyoviy qaytarish jarayoniga elektrolit tarkibidagi itterbiy konsentratsiyaning ta'sirini o'rganish;

maqsadli lyutetsiy-177 radionuklidi tutgan makro miqdorli itterbiy namunasini Hg katodiga  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$  dan  $^{175,176}\text{Yb}^0$  gacha elektrokimyoviy qaytarib lyutetsiy-177 radionuklidini ajratishning optimal sharoitlarini aniqlash;

elektroliz tugagandan keyin elektrolit eritmasidagi itterbiy qoldiqlari  $^{175,176}\text{Yb}$  va  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidini D2EGFK ekstragenti yordamida ekstraksiyaviy tozalash usulini ishlab chiqish;

bir necha gramm miqdordagi nurlatilgan itterbiy namunasidan lyutetsiy-177 radionuklidini yuqori unum, radiokimyoviy va radionuklid tozalikga ega substansiyasini olish texnologiyasini ishlab chiqish;

“Tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidi bilan nishonlangan lyutetsiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )” shaklidagi, substansiyasini ishlab chiqarish reglamenti va sifatini nazorat qilish uchun me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Hg katodida itterbiy ionlarini  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$  dan  $^{175,176}\text{Yb}^0$  gacha elektrokimyoviy qaytarish va maqsadli materialni ( $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$ ) ekstraksiya usulida tozalash radiokimyoviy sxemalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** makromiqdordagi itterbiydan mikromiqdordagi lyutetsiy-177 radionuklidini ekspres ajratish usullari va shartlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** Elektroliz, ekstraksiya, ion almashinuv, ekstraksiya va yupqa qatlamli xromatografiya; gamma-spektrometriya va radiometrik tahlil usullari, shuningdek, statistik tahlil usullari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

$^{176}\text{Yb}$  barqaror izotop bilan boyitilgan nurlangan itterbiy namunasini simob katodiga maksimal elektrokimyoviy qaytarish uchun optimal kimyoviy formasi ( $^{176}\text{YbCl}_3$ ) va itterbiyning elektrolitlardagi konsentratsiyasi (kaliy sitratli eritma uchun 1,0%, va litiy sitratli eritma uchun 1,5%) tanlangan;

nurlangan  $^{176}\text{Yb}$  namunalarni simob katodiga  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$  dan  $^{175,176}\text{Yb}^0$  gacha elektrokimyoviy qaytarish jarayonida elektrolitlar muhitining optimal pH qiymati 6,0-6,5, optimal harorat esa 0-2 C<sup>0</sup> ekanligi aniqlangan;

elektrolit eritmasidagi itterbiy qoldiqlari  $^{175,176}\text{Yb}$  va  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidini tozalashda ekstraksiya va reekstraksiyaning optimal sharoitlari aniqlandi D2EGFK/o-ksilol-HCl Ekstraksiya jarayoni uchun elektrolit eritmasi muhiti

pH=1,0-2,0, reekstraksiya uchun esa kislota konsentratsiyasi 6,0M va undan yuqori bo'lganda eng optimal ekanligi aniqlangan;

10 gramm va undan ortiq miqdordagi nurlatilgan itterbiy namunasidan tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini yuqori unumdorlik (93,5%), radiokimyoviy va radionuklid tozalikga ega substantsiyasini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

“Tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidi bilan nishonlangan lyutetsiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )” holidagi substantsiyasini ishlab chiqarish reglamenti va sifatini nazorat qilish uchun me'yoriy-texnik hujjatlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

$^{177}\text{Lu}$  radionuklidi asosidagi "Tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  bilan, lyutetsiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )" substantsiyasini seriyali ishlab chiqarish uchun sanoat reglamenti ishlab chiqilgan;

nurlangan namunaning  $^{176}\text{Yb}$  va kaliy sitratining ( $^{176}\text{Yb}:\text{CitK}_3$ ) optimal nisbatlari 1:2, shuningdek, iterbiyning elektrolitik qaytarilish jarayoni uchun maksimal foizli konsentratsiyasi  $^{176}\text{Yb}\leq 1,0\%$  aniqlangan;

nurlangan namunaning  $^{176}\text{Yb}$  va Litiy sitratining ( $^{176}\text{Yb}:\text{CitLi}_3$ ) optimal nisbatlari 1:4, shuningdek, iterbiyning elektrolitik qaytarilish jarayoni uchun maksimal foizli konsentratsiyasi  $^{176}\text{Yb}\leq 1,5\%$  ekani aniqlangan;

$^{177}\text{Lu}$  radionuklidi asosidagi "Tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  bilan, Lyutetsiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )" substantsiyasiga master fayl (Registratsion Dosye) yaratilib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi» davlat unitar korxonasida ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi**

Zamonaviy tadqiqot usullari va o'lchov vositalaridan foydalangan holda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, olingan natijalarni boshqa tadqiqotchilar va ilmiy bo'limlar ma'lumotlari bilan taqqoslash, ko'plab parallel eksperimentlar va tahlillarni o'tkazish, olingan eksperimental natijalarni statistik qayta ishlash orqali tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Olingan natijalarining ilmiy ahamiyati mikromiqdorli  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidini makromiqdorli  $^{176}\text{Yb}$  nurlantirilgan namunadan elektrokimyoviy usulda maksimal ajratish uchun optimal sharoitlarni aniqlash va iterbiy-175,176 qoldiqlaridan lutesiy-177 radionuklidini kation almashinadigan xromatografik usul bilan yakuniy tozalashda optimal o'lchamlarga ega bo'lgan xromatografik kolonka va kation almashinish smolasini tanlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lyutetsiy-177 radionuklidi asosida tashuvchisiz "Lutetiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )  $^{177}\text{Lu}$  bilan radioizotop substantsiyalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish va uni ishlab chiqarish uchun sanoat reglamentlarini ishlab chiqib, "Radiopreparat" davlat korxonasi qoshida ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lyutetsiy-177, radionuklidi asosida radioizotop substantsiyalar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalarga ko'ra:

Intellektual mulk agentligidan (“Tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olish usuli” № FAP 01893, 25.12.2020 y) foydali modelga patent olingan. Ixtirodan foydalanish natijasida nurlatilgan  $^{176}\text{Yb}$  makromiqdorlaridan tashuvchisiz, lyutetsiy-177 radionuklidining mikromiqdorlarini ekspress usulida ajratish usuli bilan “Tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  asosidagi Lyutetsiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )” substansiyasini ishlab chiqarish mumkin bo‘lib, yuqori radiokimyoviy unumdorlikka ega va yuqori radiokimyoviy, kimyoviy tozaligi, yuqori solishtirma radioaktivligini ta’minlagan holda, uni mahalliy va xorijiy tibbiyot klinikalarida keng qo‘llash imkonini beradi, va bu eksport hajmini oshirishni ta’minlovchi omillar hisoblanadi;

Intellektual mulk agentligidan (“Tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olish usuli” № UZ IAP 7809, 06.09.2024 y.) ixtiro uchun patent olingan. Ixtirodan foydalanish natijasida yuqori radiokimyoviy unumdorlikka, o‘ziga xos faollikka, radiokimyoviy va kimyoviy tozalikka ega bo‘lgan radioaktiv farmatsevtik moddani ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi;

“Lutetiy xlorid ( $^{177}\text{LuCl}_3$ )  $^{177}\text{Lu}$ , tashuvchisiz” radiofarmatsevtik substansiyasi ko‘plab xorijiy mamlakatlarga (Buyuk Britaniya, Yaponiya, AQSh, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Argentina, Turkiya) eksport qilinadi. Kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha: CMR Corporation limited (Buyuk Britaniya) Dog. 20.09.2017 y. No CMR-2017; SINMERA MIDDLE EAST AND ASIA FZ-LLC (BAA) 30.03.2023 yildagi SNMR-CNY-2023-son; “Eckert & Zeigler Chemotrade GmbH” (Germaniya) 2023 yil 23 noyabrdagi EX-2024-son; "Institute of Isotopes Co., Ltd." № HUN-2024 (Vengriya) 02.02.2024 dan boshlab yiliga eksport uchun kamida 360 Kyuri mahsulot ishlab chiqaradi. Ushbu patentlar asosidagi texnologiyalarni joriy etish asosida 2022-yil yanvaridan 2024-yil iyuniga qadar umumiy qiymati 26 milliard so‘mdan ortiq radiofarmatsevtik mahsulotlari sotildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Tadqiqotning asosiy mazmuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan 1 ta ixtiroga va 1 ta foydali modelga patent olingan, Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

## TADQIQOTNING ASOSIY MAZMUNI

**I. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan “Tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olish usuli” foydali model uchun patenti (№ IAP 01893, 25.12.2020 y.).**

**Foydalanish sohasi:** Amaliy radiokimyoyo, yadro tibbiyoti.


**Vazifasi:** Yuqori darajadagi radiokimyoviy va radionuklid tozalikka ega bo‘lgan tashuvchisiz lyutetsiy -177ni yuqori solishtirma radioaktivlikka ega xlorid ko‘rinishida yetarli katta miqdorda ekspress olishni taminlaydigan usulni yaratish.

**Ixtiro mohiyati:** “Tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olish usuli” shundan iboratki Itterbiy-176 trixlorid ( $^{176}\text{YbCl}_3$ ) ko‘rinishidagi nurlatilgan namuna tarkibidagi 1,0 g metall holdagi itterbiy hisobidagi namunasi bilan 20,0 ml 0,05M limon kislota eritmasida eritildi, namuna to‘liq erigandan so‘ng radiaktiv eritmaning pH qiymati =6,5 bo‘lguncha KOHning 2,0M eritmasi bilan titrlandi.

Soʻngra eritmaning hajmi inʼektsiya uchun suv yordamida 50 ml ga yetkazildi va Yb-175 va Lu- 177 miqdorini oʻlchash uchun namuna olindi. Elektrolit eritmasi simob katodida  $^{176}\text{Yb}^{3+}$  ionidan metal holidagi  $^{176}\text{Yb}^0$  gacha elekerolitik qaytarishga tayyor. Soʻngra elektrolit eritmasi (10) peristaltik nasos (11) orqali elektrolizyorga quyildi. Elektrolit eritmasi (3) sovutkich (8) yordamida sovutib turildi. Bunda elektrolit eritmasi haroratini +2 dan  $0^{\circ}\text{C}$  gacha doimiy ushlab turish uchun sovutkichda sovutilgan suyuqlik elektrolizyorni sovutuvchi qatlami (2) ichiga solib elektrolit eritmasi aralashtirgich (6) yordamida doimiy aralashtirib turiladi. Elektrolit eritmasi harorati kerakli qiymatga yetgandan soʻng katod (4) va anod (5) ampermetr bilan bogʻlangan reostat orqali 8-10 V kuchlanishli tok manbaiga (9) ulanadi. Elektroliz jarayonida elektrolizyorning katod maydonida elektr tokining zichligi  $50 \text{ mA}/\text{sm}^2$  taʼminlanadi va elektrolit eritmasining muhiti hamda harorati pH-metr (7) yordamida nazorat qilinadi.

Elektroliz qurilmasi shisha qavatga ega - elektrolitlar eritmasini (3) sovutish uchun sovutish qatlami (2) boʻlgan oʻtga chidamli shishadan yasalgan elektrolitik qavat (1), unga shisha trubka mahkamlanadi, u orqali platinali sim bilan biriktiriladi, uni simob katodi (4) orqali elektrolitik elektrolizatorga botiriladi. Anod - toʻrsimon platina elektrodi (5). Elektrolit eritmasi elektr aralashtirgich (6) bilan aralashtiriladi va elektroliz jarayonida elektrolitning pH va harorati pH oʻlchagich (7) bilan oʻlchab turildi. Elektrolitlar eritmasini  $2-5^{\circ}\text{C}$  haroratgacha sovutish termostat-kompressor (Chiller) (8) yordamida  $+2$  dan  $0^{\circ}\text{C}$  gacha haroratli sovutilgan suyuqlikni elektrolizatorning qatlami orqali aylantirilib amalga oshirildi. 8-10 V kuchlanishli tok manbai (9) reostat orqali ampermetrga ulandi. Elektrolit eritmasi (10) elektrolizatorga quyiladi va elektrolizdan soʻng peristaltik nasos (11) orqali chiqariladi.

Quyidagi 1-rasmda tashuvchisiz  $^{177}\text{LuCl}_3$  radionuklidini ishlab chiqarish uchun  $\text{Yb}^{3+}$  ionini metal  $\text{Yb}^0$  holatigacha elektrokimyoviy qaytarish orqali  $^{177}\text{Lu}$  ni  $^{175,177}\text{Yb}$  dan ajratish uchun elektrolizyori qurilmasining umumiy koʻrinishi keltirilgan.



1 – elektrolitik qavat, 2 – sovutuvchi qatlam, 3 – elektrolitlar eritmasi, 4 – platina spiralli simob katodi, 5 – toʻrsimon platinali anod, 6 – elektr aralashtirgich, 7 – pH-metr, 8 – sovutuvchi kompressorli chiller, 9 – tok manbai, 10 – elektrolizdan avvalgi va keyingi elektrolit eritmasi, 11 – peristaltik nasos

**1-rasm. Elektroliz qurilmasi**

Bunday holatda elektroliz 2,5 soat davom etib bu vaqt oralig'ida elektrolit eritmasidan itterbiyning 99% dan ortig'i simob katodga o'tib Hg/Yb amalgamasini hosil qiladi. Elektroliz jarayoni <sup>175,176</sup>Yb va <sup>177</sup>Lu radionuklidlarini o'lchash orqali nazorat qilindi. Jarayon yakunlangandan so'ng elektrolizyor elektr toki manбайдan uzilib elektrolit eritmasining 99% dan ortig'i perestaltik nasos yordamida elektrolizyordan so'rib olindi. So'ngra esa elektrolit eritmasi 6,0 M xlorid kislotasi bilan pH=1.0 gacha titrlanadi va D2EGFK/FT-4 bilan to'ldirilgan qattiq fazali kolonkadan o'tkazildi.

Kolonkadan 0,1M xlorid kislotasi eritmasi o'tkazildi so'ngra <sup>175, 177</sup> Yb qoldiqlari va <sup>177</sup>Lu ni 6,0 M xlorid kislotasi yordamida yuvib olindi. Olingan eritma rotatsion bug'latkichda quruq bo'lguncha quritildi va 0,01M xlorid kislotada eritildi. Olingan eritma 0,3 ml/min tezlikda, Dowex-50X8 kation almashtiruvchi smola bilan to'ldirilgan, xromatografik kolonkaga yuklandi. So'ngra xromatografik kolonka bidistillangan suv bilan yuvildi, va <sup>177</sup>Lu hamda <sup>175,176</sup>Yb alfa-oksiizomoy kislotasi ammoniyli tuzining 0,13 M eritmasi bilan 0,4 ml/min tezlikda 0,05 M dan 1,3 M gacha konsentratsiya gradienti bilan 300 daqiqa ichida elyuatsiya qilindi. <sup>177</sup>Lu tutgan fraktsiyalar 300 minutdan 340 minutgacha yig'ildi. So'ngra <sup>177</sup>Lu tutgan fraktsiyalar eritmasi 6,0 M xlorid kislotasi bilan eritma muhiti pH= 1,0 gacha titrlandi va D2EGFK / FT-4 qattiq ekstragenti bilan to'ldirilgan kolonkaga yuklandi. Xromatografik kolonka 0,1 M xlorid kislotasi eritmasi bilan yuvildi va <sup>177</sup>Lu 6,0 M HCl eritmasi bilan elyuirlandi, eritma rotatsion bug'latkichda quruq qoldiq qolguncha bug'latildi va kerakli miqdordagi 0,04 M HCl eritmasida eritildi. Natijada 10-11 soat ichida <sup>177</sup>Lu 6,8 Kyuri miqdorda, dastlabki radioaktivlikka nisbatan 93% unum bilan olindi, agar 1,0 g itterbiy-176 dan lutetsiy-177 ni faqat xromatografik usulda tozalaganimizda kamida 60 soat vaqt sarflashimizga va vaqtni qisqartirish uchun xromatografik kolonkalar va takrorlashlarni ko'paytirishga to'g'ri kelardi bu esa qimmatbaho boshlang'ich xomashyo materialini yo'qotilishiga olib kelardi, yanii radikimyoviy unumdorlikni pasaytiradi.

Olingan tayyor mahsulot tashuvchisiz <sup>177</sup>Lu radionuklidini elektrolitik va ion almashinish xromatografiyasi yordamida ketma-ket tozalash natijalari 1-jadvalda keltirilgan

### 1-jadval

#### Olingan tashuvchisiz <sup>177</sup>Lu radionuklidini elektrolitik va ion almashinish xromatografiyasi yordamida ketma-ket tozalash natijalarini o'zaro qiyosiy taqqoslash natijalari

Natijalarning tavsiflari	Prototip natijalar	Taklif etilayotgan usul natijalari
Nurlangan namunaning og'irligi Yb-176	1,0 g	1,0 g
Lytetsiy-177 ning dastlabki aktivligi	7300 mCi	7300 mCi
Itterbiy-175 ning dastlabki aktivligi	1600 mCi	1600 mCi
Itterbiyning simob katodga qaytarilishi %	-	1580 mCi 99,0%
Xromatografik tozalashdan so'ng tayyor lyutetsiy-177 izotopining aktivligi	6205 mCi	6752 mCi
Yakuniy mahsulotning radiokimyoviy unumi, %	85	92.5
Radikimyoviy tozalik %	≥99,9%	≥99,9%
Solishtirma radioaktivlik, Ci/g	92000	92000
Jarayonga sarflanadigan vaqt	66,7 soat	10 soat

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, jadvalda ko‘rsatilgandek, 1,0 g nurlatilgan boshlang‘ich xomashyo materialini faqat ion almashinuv xromotografiyasi bilan ajratishda, birinchidan xromotografik jarayonlarining o‘n marta takrorlanishi tufayli yakuniy mahsulot unumi 85% gacha kamayadi, ikkinchidan ushbu usulning eng muhim kamchiligi bu jarayonni uzoq vaqt davom etishi hamda shu davr mobaynida jarayonni doimiy monitoringni talab qilishi yani 1,0 g nurlatilgan materialdan yakuniy mahsulotni ajratib olish uchun 67 soat vaqt sarflanadi. Nurlatilgan namunadagi itterbiyning simob katodiga optimal qaytarilishini aniqlash maqsadida itterbiyning elektrokimyoviy qaytarish tezligi aniqlandi.



Simob katodida itterbiy -175,176 ni qaytarilish jarayonining natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**Simob katodida <sup>175,176</sup>Ybni qaytarilish jarayonining natijalari**

Xarakteristik nomlar	Aktivlik <sup>175</sup> Yb, mCi /ml	Aktivlik <sup>177</sup> Lu, mCi /ml
Boshlang‘ich radionuklidlarning hajmiy radioaktivligi	32	146
30 daqiqa elektrolizdan keyingi elektrolitdagi radionuklidlar miqdori	17,4	146
1,0 soat elektrolizdan keyingi elektrolitdagi radionuklidlar miqdori	7,6	146
1,5 soat elektrolizdan keyingi elektrolitdagi radionuklidlar miqdori	2,7	146
2,0 soat elektrolizdan keyingi elektrolitdagi radionuklidlar miqdori	0,09	146
2,5 soat elektrolizdan keyingi elektrolitdagi radionuklidlar miqdori	0,018	146
3,0 soat elektrolizdan keyingi elektrolitdagi radionuklidlar miqdori	0,016	146

Jadvaldagi tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki, itterbiy Yb<sup>3+</sup> holatdan Yb<sup>0</sup> holatigacha simob katodiga miqdoriy elektrolitik qaytarilib cho‘ktirilish vaqti 2,5 soatni tashkil qiladi. Elektrokimyoviy jarayonga elektrolit eritmaning pH va elektrolitlar haroratining ta’siri o‘rganildi. Elektrolit eritmaning pH muhiti va haroratining o‘zgarishi bilan simob katodida itterbiy 175,176 ni elektrokimyoviy qaytarish jarayonining natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

**3-jadval**

**Elektrokimyoviy jarayonga elektrolit eritmasining pH muhiti va elektrolit eritmasi haroratining ta’siri**

Elektrolitning pH ko‘rsatkichi	Elektrokimyoviy qaytarish jarayoni <sup>175,176</sup> Yb <sup>3+</sup> /Yb <sup>0</sup> , %	Elektrolitning temperaturasi, C <sup>0</sup>	Elektrokimyoviy qaytarish jarayoni <sup>175,176</sup> Yb <sup>3+</sup> /Yb <sup>0</sup> , %
2-3	≥ 20 %	20-25	≥ 15 %
4-5	≥ 80 %	10-15	≥ 52 %
<b>6-6,5</b>	<b>≥ 99 %</b>	<b>5</b>	<b>≥ 90 %</b>
6,5-7	≤ 99 %	<b>2</b>	<b>≥ 99 %</b>
7,5-8	≤ 80 %	<b>0</b>	<b>≥ 99 %</b>

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}/\text{Yb}^0$  ning elektrokimyoviy qaytarilishida elektrolitning past kislotali muhitida hamda elektrolitning pH muhiti qiymati 4-5 bo‘lganda simob katodiga itterbiyning elektrokimyoviy qaytarilib cho‘kish foizi mos ravishda 20% va 80% dan oshmaydi. Elektrolit past ishqoriy muhitida ya’ni elektrolit muhitining pH qiymati 7,5-8,0 atrofida bo‘lganda itterbiyning simob katodiga elektrokimyoviy qaytarilib cho‘kishi 80% dan oshmaydi. Buning sababi shundaki ehtimol elektrolit muhitning pH qiymati past bo‘lganda simob katodiga elektrokimyoviy qaytarilib cho‘kkan itterbiyning bir qismi qayta erib elektrolitga o‘tadi. Elektrolit muhitining pH qiymati oshganda ya’ni pH=7,5-8,0 bo‘lganda esa  $\text{Yb}^{3+}$  ionlari amorf cho‘kma hosil qila boshlaydi, bu esa o‘z navbatida itterbiyni simob katodiga elektrokimyoviy qaytarilish jarayoniga monelik qilib murakkablashtiradi. Itterbiyni simob katodiga elektrokimyoviy qaytarilish jarayoni uchun eng optimal sharoit elektrolit muhitining pH qiymati 6-6,5 ligi aniqlandi.  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}/\text{Yb}^0$  simob katodiga elektrokimyoviy qaytarilib qaytarilish jarayonining optimal temperaturasi +2 dan 0 °C gacha bo‘lgan holat hisoblanadi.

Shunday qilib tavsiya etilgan foydali model usuli nazariy hisoblab topilgan solishtirma radioaktivlikga yaqin bo‘lgan, yuqori radiokimyoviy hamda radionuklidli toza lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olishga imkon berdi. Foydali modelda tavsiya etilgan usul ishlab chiqarishga to‘liq joriy qilingan va yuqori sifatli mahsulot xorijiy istemolchilarga eksport qilinmoqda.

## **II. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan “Tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olish usuli” ixtiro uchun patenti (UZ IAP 7809, 06.09.24).**

**Foydalanish sohasi:** Amaliy radiokimyoy, yadro tibbiyoti

**Vazifasi:** 10 gramdan ortiq makromiqdordagi boyitilgan  $^{176}\text{Yb}$  izotopidan yuqori unum bilan mikro miqdordagi tashuvchisiz  $^{177}\text{Lu}$  radioizotopini ajratishning ekspres usulini yaratish va bir vaqtning o‘zida dastlabki nurlantirilgan xomashyoni minimal yo‘qotish bilan ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish orqali yuqori radiokimyoviy, kimyoviy tozalik va yuqori aktivlikni ta’minlash, shuningdek, steril apirogenni radioaktiv substansiya olish.

**Ixtiro mohiyati:** Tashuvchisiz lyutetsiy-177 radionuklidini xlorid holda olish usuli” shundan iboratki 10 g barqaror Itterbiy-176 trixlorid ( $^{176}\text{YbCl}_3$ ) shaklidagi (itterbiy-176 bilan 99,45% boyitilgan) kvarts ampula 5 kun davomida issiq energiyali neytronlar oqimida  $8 \times 10^{13} \text{ n/sm}^{-2}\text{s}^{-1}$  nurlantiriladi. Nurlangandan keyin namuna 300 ml 0,42 M limon kislota eritmasida eritiladi, namuna to‘liq erigandan so‘ng radiaktiv eritmaning pH qiymati =6,0 bo‘lguncha LiOH ning 2.0 M eritmasi bilan titrlandi. So‘ngra eritmaning hajmi bidistillangan suv yordamida 650 ml ga yetkazildi va Yb-175 va Lu-177 miqdorini o‘lchash uchun namuna olinadi (4-jadvalda keltirilgan).

### **4-jadval**

#### **Lu-177 va Yb-175 radionuklidlarining hajmiy va umumiy radioaktivligini o‘lchash natijalari**

Hajmiy aktivligi	Lu-177, mCi /ml	Yb-175, mCi /ml
	89,23	20,67
Umumiy aktivligi	58,0 Ci	13,44 Ci

Shu tarzda tayyorlangan elektrolit eritmasidagi ( $\text{Li}_3\text{Cit}$ ) Lutetsiy-177 radionuklidini itterbiyning asosiy massa miqdoridan ajratish uchun elektroliz jarayoni amalga oshiriladi. Elektrolit eritmasi simob katodida  $^{176}\text{Yb}^{3+}$  ionidan metal holidagi  $^{176}\text{Yb}^0$  gacha elekerolitik qaytariladi va simob katodda itterbiyli amalgama  $\text{Hg}^{176,175}\text{Yb}^0$  hosil bo'ladi

Elektroliz jarayonida elektrolizyorning katod maydonida elektr tokining zichligi  $50\text{mA}/\text{cm}^2$  ta'minlanadi va elektrolit eritmasining muhiti hamda harorati pH-metr yordamida nazorat qilinadi. Bunday holatda elektroliz 2,0 soat davom etib bu vaqt oralig'ida elektrolit eritmasidan itterbiyning 97% va undan ortiq qismi Hg/Yb amalgamasini hosil qiladi. Elektroliz yakunlangandan so'ng elektrolit eritmasining 99 % dan ortiq miqdori perestaltik nasos yordamida elektrolizyordan so'rib olindi. So'ngra esa elektrolit eritmasi 6,0 M xlorid kislotasi eritmasi bilan  $\text{pH}=1,0$  gacha titrlandi va D2EGF/orto ksiloldagi 200 ml 0,5 molyarli eritmasi bilan uch marta ekstraksiya qilindi. Har bir ekstraksiya jarayoni kamida besh daqiqa amalga oshirildi. Ekstraksiya tugagandan keyin  $^{177}\text{Lu}$  va  $^{175,176}\text{Yb}$  qoldiqlari 100 ml 6,0 M HCl eritmasi bilan uch marta reekstraksiya qilindi va aylanadigan bug'latgichda quruq holatga kelguncha bug'latildi.  $^{177}\text{Lu}$  va qolgan  $^{175,176}\text{Yb}$  radionuklidlarini tutgan  $\approx 0,268$  gramm quruq qoldiq 20 ml limon kislotada eritildi va 2,0 M LiOH eritmasi bilan  $\text{pH} 6,0$  gacha titrlandi va elektrolit eritmasi hajmi bidistillangan suv bilan 50 ml ga yetkazildi,  $^{175}\text{Yb}$  va  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidlarining dastlabki radioaktivligini o'lchash uchun alikvota olindi (5-jadvalda keltirilgan).

### 5-jadval

#### Lu-177 va Yb-175 radionuklidlarining hajmiy va umumiy radioaktivligini o'lchash natijalari

Hajmiy aktivligi	Lu-177, mCi /ml	$^{175}\text{Yb}$ , mCi /ml
		1148
Umumiy aktivligi	57,4 Ci	0,36 Ci
		0,268 g $^{176}\text{Yb}$ Ci

Keyinchalik, elektrolitlar eritmasi elektrolizyorga perestatik nasos orqali quyildi va simob katodida 1,0 soat davomida yuqorida keltirilgan usulda elektroliz qilindi. Bu vaqt ichida 94% dan ortiq itterbiy ionlari  $^{176,175}\text{Yb}^{3+}$  simob katodga qaytarildi. Elektrolit eritmasi tushirilgandan so'ng, 6,0 M HCl eritmasi bilan  $\text{pH} 1,0$  gacha titrlandi, eritmadagi  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidi va  $^{175,176}\text{Yb}$  qoldiqlari dastlabki massaning 0,16% dan kam bo'lgan miqdorni tashkil qildi ba D2EGF/ orto ksiloldagi 10 ml 0,5 molyarli eritmasi bilan uch marta ekstraksiya qilindi. Ekstraksiya tugagandan keyin  $^{177}\text{Lu}$  va  $^{175,176}\text{Yb}$  qoldiqlari 6,0 M HCl eritmasi bilan uch marta reekstraksiya qilindi va aylanadigan bug'latgichda quruq bo'lgunga qadar bug'latildi.  $^{175,176}\text{Yb}$  va  $^{177}\text{Lu}$  tutgan 0,016 gramga yaqin quruq qoldiq 10 ml 0,01 M HCl da eritilib  $^{175}\text{Yb}$  va  $^{177}\text{Lu}$  radionuklidlarning radioaktivligi o'lchandi (6-jadvalda keltirilgan).

Olingan eritma DOWEX-50x8 kation almashinish smolasi bilan to'ldirilgan, 0,1 M ammoniy xlorid eritmasi bilan oldindan ishlov berilib, ikki marta bidistillangan suv bilan yuvilgan xromatografik kolonkaga yuklandi. Kolonkadagi  $^{177}\text{Lu}$  va  $^{175,176}\text{Yb}$  alfa-oksiizomoy kislotasi ammoniyli tuzining 0,13 M eritmasi bilan 0,4 -0,6 ml/min tezlikda 300 daqiqa davomida 0,01 M dan 0,13 M gacha konsentratsiya oralig'ida gradiyent rejimida elyuatsiya qilindi.

**6-jadval**

**Lu-177 va Yb-175 radionuklidlarining hajmiy va umumiy radioaktivligini o'lchash natijalari**

Hajmiy aktivligi	Lu-177, mCi /ml	Yb-175, mCi /ml
	5682,6	7,2
Umumiy aktivligi	56,83 Ci	0,0216 Ci
		0,016g, <sup>176</sup> Yb

<sup>177</sup>Lu tutgan fraksiyalar 280 minutdan 340 minutgacha yig'ildi. So'ngra <sup>177</sup>Lu eritmasi 6,0 M xlorid kislotasi bilan eritma muhiti pH = 1,0 gacha yetkazildi va D2EGFK / FT-4 qattiq ekstragentli kolonkaga yuklandi. Xromatografik kolonka 0,1 M xlorid kislota eritmasi bilan yuvildi va <sup>177</sup>Lu 6,0 M HCl eritmasi bilan elyuatsiya qilindi, eritma rotatsion bug'latgichda quruq qoldiq qolguncha bug'latildi va kerakli miqdordagi 0,04 M HCl eritmasida eritildi.

Natijada, radionuklidning radioaktiv parchalanishini hisobga olgan holda, 52,2 Ci <sup>177</sup>Lu radionuklidini olishga erishildi va bunda texnologik unum 93% dan ortiqni tashkil qildi. Prototip usulida esa tashuvchisiz <sup>177</sup>Lu ni 10,0 g itterbiy-176 dan ajratishda namunani har biri 1,0 g dan 10 qismga bo'linadi. Bu jarayon taxminan 30-35 soat vaqt talab qiladi. Elektrolitik va ion almashinish xromatografiyasi orqali ketma-ket tozalash natijasida olingan tashuvchisiz <sup>177</sup>Lu radionuklidining xususiyatlari 7-jadvalda keltirilgan.

**7- jadval**

**Turli usullarda olingan tashuvchisiz <sup>177</sup>Lu radionuklidining qiyosiy taqqoslash natijalari**

Umumiy tavsiflar	Prototip usul natijalari	Taklif etilayotgan usul natijalari
<b>Nurlangan materialning og'irligi Yb-176</b>	1,0 g	10,0 g
<b>Nurlanish vaqti va oqimi</b>	4 kun, 1×10 <sup>14</sup> n/sm <sup>2</sup> ×s	5 kun, 3-5×10 <sup>13</sup> n/sm <sup>2</sup> ×s
<b>Liyutetsiy-177 ning dastlabki aktivligi</b>	7,3 Ci	58 Ci
<b>Itterbiy-175 ning dastlabki aktivligi</b>	1,6 Ci	13,44 Ci
<b>Birinchi elektrolitik qaytarilishda simob katodga qaytarilgan <sup>175</sup>Yb/Ci, <sup>176</sup>Yb/gram miqdori, %</b>	1,58 Ci <sup>175</sup> Yb, 0,99 gramm <sup>176</sup> Yb 99,0%	13,17 Ci <sup>175</sup> Yb, 9,7 gramm <sup>176</sup> Yb >97,0%
<b>Ikkinchi elektrolitik qaytarilishda simob katodga qaytarilgan <sup>175</sup>Yb/Ci, <sup>176</sup>Yb/gram miqdori, %</b>	-	0,338 Ci >94%
<b>Qolgan <sup>176</sup>Yb miqdori, g</b>	0,01	0,016
<b>Ion almashinish xromatografiyasi usulida tozalangan tayyor mahsulot radioaktivligi <sup>177</sup>Lu</b>	6,79 Ci	52,2 Ci
<b>Tayyor mahsulotning (<sup>177</sup>Lu) texnologik unumi, %</b>	≥92,5	≥93
<b>Radiokimyoviy tozalik, %</b>	≥99,9%	≥99,9%
<b>Solishtirma radioaktivlik, Ci/mg</b>	92,0	92,0
<b>Sarflangan vaqt</b>	10 soat	14 soat

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, tashuvchisiz <sup>177</sup>Lu radionuklidini 10 gramm nurlangan itterbiy-176 namunasidan tavsiya etilgan usul bo'yicha ajratib olinganda prototip usulga nisbatan 7 marta kam vaqt sarflanadi va bu bilan qimmatli mahsulotning radioaktiv parchalanish hisobiga kamayishining oldi olinadi. Bundan tashqari 10 ta 1 gramlik namuna bilan ishlash o'rniga 1 ta ish jarayonida ajratish

xom ashyo va ish vaqtining kamayishi hisobiga mahsulot tannarhini kamaytiradi. Elektrolitlar tarkibi va elektroliz rejimini o‘rganish uchun simob katodida  $^{175,176}\text{Yb}^{3+}$  ionlarini  $^{175,176}\text{Yb}^0$  gacha elektrolitik qaytarilishiga litiy sitrat va kaliy sitratning ta’siri o‘rganildi. Tajriba natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

### 8-jadval

#### Elektrokimyoviy qaytarish jarayonida elektrolit tarkibidagi litiyli yoki kaliyli limon kislotatuzlarini elektrolitik ajratilish jarayoniga ta’siri

